

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025
APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxatiliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	

MULKCHILIK SHAKLIGA KO'RA TIJORAT BANKLARIDA DEPOZITLARINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

Allaberganov Sirojali Saxatovich

Xalqaro Nordik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: So'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar bank tizimini modernizatsiya qilish va xususiy sektor ulushini oshirishga qaratilgan. Banklar faoliyatini erkinlashtirish, xorijiy investorlar uchun ochiqlikni ta'minlash va davlat monopoliyasini qisqartirish orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish maqsad qilingan. Tahlillarga ko'ra, xususiy banklar bozorda mustahkam o'rin egallab, iqtisodiy islohotlarning muhim bo'g'iniga aylanib bormoqda. Bu islohotlar xususiy sektorning iqtisodiyotga faol integratsiyasini rag'batlantirib, iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: bank tizimi, bank depoziti, bank aktivi, bank krediti, iqtisodiy o'sish.

Abstract: In recent years, economic reforms in Uzbekistan have been focused on modernizing the banking system and increasing the private sector's share. The aim is to diversify the economy through liberalizing banking activities, ensuring openness for foreign investors, and reducing state monopoly. According to analyses, private banks are securing a strong position in the market and are becoming a crucial link in economic reforms. These reforms are encouraging the active integration of the private sector into the economy, positively impacting economic growth and financial stability.

Keywords: banking system, bank deposit, bank assets, bank credit, economic growth.

Аннотация: В последние годы в Узбекистане проводятся экономические реформы, направленные на модернизацию банковской системы и увеличение доли частного сектора. Либерализация банковской деятельности, обеспечение открытости для иностранных инвесторов и сокращение государственной монополии преследуют цель диверсификации экономики. Согласно анализу, частные банки укрепляют свои позиции на рынке и становятся важным звеном экономических преобразований. Эти реформы способствуют активной интеграции частного сектора в экономику, оказывая положительное влияние на экономический рост и финансовую стабильность.

Ключевые слова: банковская система, банковский депозит, банковский актив, банковский кредит, экономический рост.

KIRISH

Bank tizimida davlat ulushining yuqori bo'lishi moliyaviy sektorning samaradorligini pasaytirishi mumkin, chunki davlat banklari ko'pincha bozor tamoyillaridan ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy siyosatga yo'naltirilgan qarorlar qabul qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqobatbardosh bank tizimi moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishiga va kredit bozorining rivojlanishiga xizmat qiladi¹. Davlat banklarining monopol holatda bo'lishi esa kredit ajratish jarayonida noratsional qarorlarni keltirib chiqarishi va xususiy sektorning rivojlanishiga to'siq yaratishi mumkin. Shu bois, davlat ulushini kamaytirish orqali bozor tamoyillariga asoslangan bank tizimini shakllantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun muhim hisoblanadi.

Xususiy banklarning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish bank tizimiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda kapital bozorining liberallasuvi hamda xususiy sektorning moliyaviy tizimdagi ishtirokini kengaytirish iqtisodiy o'sishni tezlashtirishi aniqlangan. Xususiy banklar bozor talablariga mos xizmatlar taklif qilish va mijozlar segmentatsiyasini kengaytirish orqali bank tizimining barqarorligini oshiradi². Shuningdek, xususiy banklar raqobat muhitida ilg'or texnologiyalar va innovatsion moliyaviy xizmatlarni joriy etish orqali sektordagi samaradorlikni oshiradi, bu esa bank tizimining umumiy ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat ulushining kamaytirilishi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va kredit bozorining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bank tizimidagi davlat ulushining ortiqcha bo'lishi kreditlar ajratilishida

1 Levine, R. (2005). Finance and Growth: Theory and Evidence. Handbook of Economic Growth, Elsevier.

2 La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., & Shleifer, A. (2002). Government Ownership of Banks. The Journal of Finance, 57(1), 265–301.



resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga olib kelishi mumkin, chunki davlat banklari ko'pincha strategik sohalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi va bu bozorda nosog'lom raqobat muhitini yuzaga keltiradi³. Xususi sektor ishtirokining ortishi esa kredit bozorining diversifikatsiyalashuviga, bank xizmatlarining raqobatbardoshligi oshishiga va kapitalning samarali aylanishiga imkon yaratadi. Natijada, bank tizimi moliyaviy stress va iqtisodiy tanglik sharoitlariga tezroq moslashadi, bu esa iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish, raqamli xizmatlar xavfi va qulayligi, shuningdek, raqamli bank tizimi rivojlanishida bank depozitlarining barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda tijorat banklarisiz iqtisodiyotning rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli banklarning resurs bazasining mustahkamligini ta'minlash va bunda depozit operatsiyalarining o'ri bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy ishimizning ushbu paragrafida biz ayrim ilmiy tadqiqotlar bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

Yuan, Gazi, Harymawan, Dhar va Hossain tomonidan olib borilgan tadqiqotda Janubiy Osiyo davlatlaridagi tijorat banklarining nafililigini aniqlaydigan asosiy omillar o'rganilgan. Mualliflar bank faoliyatining samaradorligini baholashda muhim bo'lgan iqtisodiy va moliyaviy omillarni tahlil qilishga harakat qilgan. Maqolada banklar nafililigiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida aktivlar hajmi, kapital resurslar, operatsiya xarajatlari, likvidlik darajasi va makroiqtisodiy omillar (valyuta o'zgarishlari, inflyatsiya, iqtisodiy o'sish) ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi – Janubiy Osiyo davlatlaridagi tijorat banklarining nafililigini belgilash va qanday omillar ularning moliyaviy samaradorligiga ta'sir qilayotganini aniqlashdir. Mualliflar ushbu omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlab, banklarga nafililikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun tavsiyalar berishni maqsad qilib qo'ygan.

Tadqiqotda panel ma'lumotlar tahlili va fiksion regressiya modeli (Fixed Effects Model)dan foydalanilgan. Ma'lumotlar 2010–2019-yillar davomidagi Janubiy Osiyo davlatlarining tijorat banklari haqidagi moliyaviy hisobotlaridan olingan. Natijalarga ko'ra, banklar nafililigini oshirish uchun foiz stavkalari, kapitalning yetarliligi va likvidlik darajasi muhim omillar ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, makroiqtisodiy omillar, ayniqsa iqtisodiy o'sish va inflyatsiya darajasi banklar nafililigiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, banklar nafililigini oshirish uchun davlat siyosatlarini, kapital boshqaruvi va operatsion xarajatlarni samarali boshqarishga e'tibor qaratish lozim. Tadqiqot natijalari Janubiy Osiyo davlatlaridagi banklar uchun raqobatbardoshlikni ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim strategik yo'nalishlarni belgilab bergan.⁴

Al Zaidanin va Al Zaidanin tomonidan olib borilgan tadqiqot Buyuk Amirliklardagi tijorat banklarining moliyaviy faoliyatiga kredit xavfini boshqarishning ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Mualliflar kredit xavfi boshqaruvi bilan banklar nafililigi va moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi aloqaga e'tibor qaratgan. Maqolada kredit xavfini boshqarishning asosiy elementlari sifatida kredit sifatini baholash, so'rovlar va qarzlarni hajmini yoki tavakkalchilik miqdorini chegaralashga oid usullar muhokama qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – Buyuk Amirliklardagi tijorat banklarining moliyaviy samaradorligiga kredit xavfi boshqaruvining ta'sirini aniqlash va uning banklarning moliyaviy natijalarini yaxshilashdagi roliga aniqlik kiritishdan iborat. Mualliflar kredit xavfi boshqaruvining banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va nafililigini oshirishdagi ahamiyatini chuqurroq tushunishga harakat qilgan.

Tadqiqotda mualliflar panel regressiya modelidan foydalangan. Ushbu model moliyaviy hisobotlardan olingan ma'lumotlar asosida banklar faoliyatiga kredit xavfi boshqaruvining ta'sirini aniqlashga xizmat qilgan. Ma'lumotlar 2010–2019-yillar davomidagi Buyuk Amirliklardagi tijorat banklarining moliyaviy natijalariga oid statistiklardan olingan. Natijalar shuni ko'rsatgan: kredit xavfini boshqarishning to'g'ri va samarali amalga oshirilishi banklar nafililigini oshirishga yordam beradi, ayniqsa kredit sifati va xavfni kamaytirish yo'nalishida. Banklar uchun chiqarilgan asosiy xulosa shundan iboratki, kredit xavfi boshqaruvi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda ijobiy moliyaviy natijalarni saqlashga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Mualliflar ta'kidlaganidek, puxta amalga oshirilgan kredit xavfi boshqaruvi banklarning umumiy samaradorligiga ijobiy ta'sir etadi va tavakkalchiliklarni minimallashtirishda muhim ahamiyatga ega.⁵

Dong, Yin, Liu, Hu, Li va Liu tomonidan olib borilgan tadqiqotda internet moliyasining (Internet Finance) Xitoy tijorat banklarining moliyaviy faoliyatiga ta'siri o'rganilgan. Mualliflar internet moliyasining banklarning

3 Megginson, W. L. (2005). The Economics of Bank Privatization. *Journal of Banking & Finance*, 29(8-9), 1931-1980.

4 Yuan, D., Gazi, M. A. I., Harymawan, I., Dhar, B. K., & Hossain, A. I. (2022). Profitability determining factors of banking sector: Panel data analysis of commercial banks in South Asian countries. *Frontiers in psychology*, 13, 1000412.

5 Al Zaidanin, J. S., & Al Zaidanin, O. J. (2021). The impact of credit risk management on the financial performance of United Arab Emirates commercial banks. *International Journal of Research in Business and Social Science* (2147-4478), 10(3), 303-319.

ishlab chiqarish samaradorligi, nafilligi va moliyaviy barqarorligini qanday o'zgartirayotganini tahlil qilishga harakat qilgan. Maqolada internet moliyasining asosiy komponentlari – jumladan, onlayn qarz berish, raqamli platformalar, elektron tijorat va kriptovalyuta tizimlarining banklarga qanday ta'sir ko'rsatayotgani bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi – internet moliyasining banklar faoliyatiga bo'lgan ta'sirini aniqlash hamda Xitoydagi tijorat banklari uchun uning ijobiy va salbiy natijalarini baholashdan iborat. Mualliflar internet moliyasining tez o'sishi banklarning raqobatbardoshligini oshirishga qanday yordam berayotgani, yoki aksincha, yangi xatarlar – ayniqsa, xavfsizlik va tahdidlarning kuchayishiga olib kelishi mumkinligini tahlil qilgan.


Tadqiqotda mualliflar panel regressiya modelidan foydalangan bo'lib, Xitoy tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlariga internet moliyasining ta'sirini aniqlash uchun zarur ma'lumotlar tahlil qilingan. Ma'lumotlar 2010–2019-yillar davomidagi Xitoyning yetakchi tijorat banklarining moliyaviy natijalarini o'z ichiga olgan. Natijalar shuni ko'rsatganki, internet moliyasining banklar nafilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishida asosiy omil sifatida raqamli platformalar va onlayn xizmatlarning tez o'sishi muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, internet moliyasining qulay kirish imkoniyatlari banklar uchun yangi mijozlar va bozorlarni ochgan bo'lsa-da, shu bilan birga yangi tavakkalchiliklar ham yuzaga kelgan – ayniqsa, raqobat kuchayishi va axborot xavfsizligi bilan bog'liq jihatlar e'tiborga loyiq. Tadqiqotdan ma'lum bo'ldiki, internet moliyasining o'sishi tijorat banklari uchun moliyaviy samaradorlikni oshirgan, biroq bu jarayon xavf-xatarlarni kamaytirish va xavfsizlik choralarini kuchaytirishni ham talab qilgan.⁶

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, tijorat banklari resurs bazasi barqarorligini tahlil qilishda tijorat banklarining rasmiy statistik ma'lumotlari olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarning aktivlari yildan-yilga sezilarli darajada oshib bormoqda. 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 230,1 trillion so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib u 503,2 trillion so'mga yetgan. Shu bilan birga, kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning aktivlari ham o'sish tendensiyasini ko'rsatib, 2020-yildagi 42,6 trillion so'mdan 2025-yilda 266,1 trillion so'mgacha ko'paygan. Bu holat bank sektorida davlat va xususiy kapital ishtirokining o'sib borayotganligini hamda moliyaviy tizimning diversifikatsiyasi kuchayganligini bildiradi (1-rasm).



1-rasm. Mulkchilik shakliga ko'ra bank tizimining rivojlanish tendensiyalari⁷ (trln so'mda).

6 Dong, J., Yin, L., Liu, X., Hu, M., Li, X., & Liu, L. (2020). Impact of internet finance on the performance of commercial banks in China. *International Review of Financial Analysis*, 72, 101579.


7 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Grafikdagi yashil chiziq kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar aktivlarining YalMga nisbati bo'yicha tendensiyaning ko'rsatmoqda. 2020-yilda bu ko'rsatkich 38,7 % bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda u eng yuqori nuqtaga – 46,1 % ga yetgan, biroq keyinchalik pasayish tendensiyasiga o'tib, 2025-yilda 34,6 % ga tushgan. Ushbu o'zgarishlar davlat banklarining iqtisodiyotdagi roli kamayib, xususiy sektorning faoliyati kengayib borayotganini anglatadi. Bu holat davlat tomonidan bank tizimini liberallashtirish va xususiy sektor ishtirokini oshirishga qaratilgan islohotlar natijasi sifatida qaralishi mumkin.

Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar aktivlarining YalMga nisbati (grafikda ko'k chiziq bilan belgilangan) sezilarli o'sish sur'atini namoyon qilmoqda. 2020-yilda ushbu ko'rsatkich atigi 7,2 % bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib u 18,3 % ga yetgan. Ushbu dinamikadan kelib chiqib, xususiy banklar aktivlarining YalMga nisbati 2,5 barobarga oshganini ko'rish mumkin. Bu holat xususiy banklarning bozor ulushini kengaytirayotganini va ularning iqtisodiyotda faollashib borayotganini ko'rsatadi.

Davlat ulushi mavjud va mavjud bo'lmagan banklarning kreditlash hajmi hamda yalpi ichki mahsulotdagi ulushining dinamikasi quyidagi grafik asosida tahlil qilinadi. Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarning kreditlari sezilarli darajada oshgan bo'lib, 2020-yilda 186,6 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 366,7 trillion so'mga yetgan. Ushbu tendensiya davlat banklarining iqtisodiyotni moliyalashtirishda yetakchi rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Biroq davlat banklari kreditlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi pasayib bormoqda – bu esa iqtisodiyotda xususiy sektorning rolini oshirish jarayonlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin (2-rasm).




2-rasm. Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat bank kreditlarining iqtisodiyotni rivojlanishidagi o'rni⁸ (trln so'mda).

Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning kreditlash hajmi esa yanada tezroq o'sib bormoqda. 2020-yilda ushbu banklarning kredit hajmi 25 trillion so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 166,4 trillion so'mga yetgan. Ushbu o'sish xususiy banklarning bozor talablariga moslashish qobiliyatining oshib borayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, xususiy banklarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2020-yilda atigi 4,2 % bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 11,4 % ga yetgan.

Davlat banklari kreditlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa teskari tendensiyaning ko'rsatmoqda. Agar 2020-yilda bu ko'rsatkich 31,4 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 25,2 % ga tushgan. Ushbu holat iqtisodiyotda davlat banklarining nisbiy ahamiyati kamayib borayotganini anglatadi. Bu esa xususiy sektorning yanada faollashishi va moliyaviy resurslarning xususiy banklar orqali taqsimlanishining oshayotganidan dalolat beradi.

8 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Quyidagi grafikda kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari – jumladan, aktivlar, majburiyatlar, kapital, kreditlar va depozitlarning yillik dinamikasi tasvirlangan. Ushbu ko'rsatkichlarning barchasi 2020–2025-yillar oralig'ida o'sib borgan bo'lib, bu davlat banklarining umumiy moliyaviy salohiyati va iqtisodiy jarayonlardagi rolini aks ettiradi. Ayniqsa, aktivlar va majburiyatlarining keskin oshishi bank sektorining iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasi ortayotganini ko'rsatmoqda (3-rasm).



3-rasm. Kapitalida davlat ulushi mavjud banklarning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi⁹ (trln so'mda).

Kapitalida davlat ulushi mavjud banklarning aktivlari eng yirik ko'rsatkich bo'lib, yillar davomida muntazam o'sib borgan. 2020-yilda ushbu banklarning aktivlari 250 trillion so'm atrofida bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 500 trillion so'mdan oshgan. Aktivlarning bunday sezilarli o'sishi davlat banklarining moliyaviy imkoniyatlari kengayib borayotganidan dalolat beradi. Bu jarayon ko'pincha davlat banklariga yo'naltirilgan mablag'lar va yangi kredit liniyalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kapitalida davlat ulushi mavjud banklarning majburiyatlari ham aktivlar bilan birga o'sib borgan bo'lib, bu banklarning moliyaviy resurslarni jalb qilish ko'lamining oshayotganidan darak beradi. 2020-yilda majburiyatlar aktivlarga nisbatan pastroq bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda ularning o'sish sur'ati tezlashgan. Majburiyatlarining ortishi, ko'pincha, depozitlar va boshqa moliyaviy vositalar orqali jalb qilingan mablag'larning ko'payishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kapitalida davlat ulushi mavjud banklarning kapitali esa boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan nisbatan kichik hajmda o'sib borgan bo'lib, bu davlat banklarining kapital yetarililigini oshirish bo'yicha muayyan cheklolarga duch kelayotganini ko'rsatadi. Kapital yetariligi – banklarning tavakkalchiliklarni boshqarish qobiliyatini belgilab beruvchi muhim omillardan biridir. Kapitalning nisbatan past o'sishi banklarning o'z kapitali evaziga emas, balki asosan jalb qilingan mablag'lar hisobidan rivojlanayotganini anglatadi.


Kapitalida davlat ulushi mavjud banklarning kreditlari va depozitlari ham yillar davomida izchil o'sib borgan. Kreditlarning oshishi iqtisodiyotning real sektoriga moliyaviy resurslar yo'naltirilayotganini bildirsa, depozitlarning ortishi esa aholi va tadbirkorlik subyektlarining bank tizimiga bo'lgan ishonchi ortayotganini ko'rsatadi. Depozitlarning o'sishi banklarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Quyidagi grafikda kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari – jumladan, aktivlar, majburiyatlar, kapital, kreditlar va depozitlarning 2020–2025-yillar oralig'idagi dinamikasi aks ettirilgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, ushbu banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari yillar davomida izchil o'sib

9 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



borgan bo'lib, bu ularning bozor iqtisodiyotidagi rolini mustahkamlashga intilayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, aktivlar va majburiyatlarning oshishi moliya bozorining rivojlanish tendensiyasini aks ettiradi (4-rasm).



4-rasm. Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi¹⁰ (trln so'mda).

Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning aktivlari eng yirik ko'rsatkichlardan biri bo'lib, yillar davomida doimiy o'sib borgan. 2020-yilda ushbu banklarning aktivlari taxminan 50 trillion so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 250 trillion so'mdan oshgan. Aktivlarning bunday keskin o'sishi ushbu banklarning moliyaviy salohiyati ortib borayotganidan dalolat beradi va ularning iqtisodiyotga ta'siri kuchayib borayotganini ko'rsatadi.


Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning majburiyatlari ham aktivlar bilan birga o'sib borgan bo'lib, bu banklarning jalb qilingan mablag'lar hajmi ortib borayotganini bildiradi. 2020-yilda majburiyatlar nisbatan past bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ularning hajmi sezilarli darajada oshgan. Bu jarayon depozitlarning ko'payishi va banklarning xorijiy hamda mahalliy moliyaviy institutlardan mablag' jalb qilish imkoniyatlarining ortishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning kapitali nisbatan past o'sish sur'atiga ega bo'lsa-da, umumiy tendensiya ijobiy yo'nalishda kechmoqda. Kapitalning oshishi banklarning barqarorligi va moliyaviy mustahkamligini ta'minlash uchun muhim bo'lib, ularning kreditlash salohiyatini ham oshiradi. Biroq kapitalning majburiyatlar va aktivlarga nisbatan past sur'atda o'sishi ushbu banklarning asosan jalb qilingan mablag'lar hisobiga faoliyat yuritayotganidan dalolat beradi.


Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning kreditlari va depozitlari ham o'sishda davom etgan bo'lib, bu iqtisodiyotning real sektoriga moliyaviy resurslar yo'naltirilayotganini va bank tizimiga bo'lgan ishonch mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Xususan, 2023-yildan boshlab kreditlash hajmining sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda. Bu esa kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish, aholini ipoteka hamda iste'mol kreditlari bilan ta'minlash darajasining oshganidan dalolat beradi.

Quyidagi grafikda kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarning depozitlar, boshqa majburiyatlar va kapitalning umumiy tarkibdagi ulushi foiz ko'rinishida tahlil qilinadi. 2020–2025-yillar davrida banklarning asosiy moliyaviy manbalari tarkibi nisbatan barqaror bo'lib qolgan bo'lsa-da, depozitlarning umumiy majburiyatlar va kapitalga nisbatan yuqori ulushga ega ekanligi kuzatilmoqda. Bu esa davlat ulushiga ega banklarning asosiy moliyalashtirish manbai sifatida mijoz depozitlariga tayanayotganini ko'rsatadi (5-rasm).

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


 5-rasm. Kapitalida davlat ulushi mavjud banklar balans passivining holati¹¹.

Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarning boshqa majburiyatlari kapitalga nisbatan ancha yuqori ulushni egallaydi. Bu esa banklarning asosan majburiyatlar hisobidan faoliyat yuritayotganini bildiradi. 2020-yilda boshqa majburiyatlarning ulushi nisbatan yuqori bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ulush bir oz kamaygan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, kapital ulushining foiz jihatidan nisbatan kichikligicha qolishi ushbu banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va kapital yetarililigi oshirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi (6-rasm).


 6-rasm. Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar balans passivining holati¹².

Ushbu grafikda O'zbekistonda kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning depozitlari, boshqa majburiyatlari va kapitalining yillik dinamikasi aks ettirilgan. Grafik 2020–2025-yillar davrini qamrab oladi va bank sektorida xususiy kapitalning o'sishini ko'rsatadi.

11 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

12 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.




Grafikda kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning depozitlari yildan-yilga barqaror ravishda oshib borganini ko'rish mumkin. Ayniqsa, 2020–2025-yillar oralig'ida bu ko'rsatkichning izchil o'sishi O'zbekistonning bank-moliya tizimini liberallashtirishga qaratilgan islohotlar samarasi sifatida namoyon bo'lgan. So'nggi yillarda aholining xususiy banklarga bo'lgan ishonchi ortib, omonatlarni davlatga tegishli bo'lmagan banklarga joylashtirish tendensiyasi kuchaygan. Bu esa xususiy sektorning bank tizimidagi rolini kuchaytirgan.

Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning boshqa majburiyatlari ulushi ham yillar davomida o'zgarib borgan. 2023-yilda bu ko'rsatkichda keskin o'sish kuzatilgan bo'lib, bu xususiy banklarning tashqi va ichki moliyaviy manbalardan qarz jalb qilish salohiyatining ortib borayotganini bildiradi. O'zbekiston hukumati tomonidan bank tizimida raqobatni kuchaytirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan islohotlar ushbu tendensiyani qo'llab-quvvatlagan.

Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning kapitali ham yil sayin ortib borgan. Bu esa xususiy banklarning moliyaviy barqarorligini oshirib, ular orqali iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ko'proq kredit ajratilishiga imkon yaratgan. O'zbekiston hukumati 2020-yildan boshlab xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirib, davlatga qarashli banklarning aksiyalarini bosqichma-bosqich sotishga e'tibor qaratdi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida banklar kapitali tarkibida xususiy sektor ulushi keskin ortgan.

Quyidagi grafikdan ko'rinib turibdiki, bu davr mobaynida kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning depozitlari doimiy ravishda o'sib borgan bo'lsa, davlat ulushi mavjud banklarda ham o'sish kuzatilgan. Biroq ularning ulush nisbati yillar davomida sezilarli darajada kamaygan (7-rasm).



7-rasm. Mulkchilik shakliga ko'ra banklar depozitlarining bank tizimida tutgan o'ri¹³.


2020-yilda kapitalida davlat ulushi mavjud banklarda depozitlar umumiy hajmning 72,2 % ini tashkil qilgan bo'lsa, davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning ulushi 27,8 % ni tashkil qilgan. 2022-yilga kelib davlat banklari ulushi 66,8 % gacha pasaygan bo'lsa-da, xususiy banklar ulushi 33,2 % gacha ko'tarilgan. Bu davrda xususiy banklarning ahamiyati ortib, bozorning muhim qismini egallay boshlagani yaqqol ko'rinib turibdi.

2025-yilga kelib, davlat ulushi mavjud banklar depozitlari umumiy hajmning 50,1 % ini tashkil etgan bo'lsa, davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning ulushi 49,9 % gacha o'sgan. Bu esa xususiy banklarning davlat banklari bilan deyarli tenglashganini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, xususiy banklarning depozitlar bozorida ulushi sezilarli darajada oshib borayotgan bo'lsa, davlat banklarining nisbiy ulushi kamaymoqda. Bu esa bank sektoridagi raqobatni ortib borayotganidan dalolat beradi.

Quyidagi grafikda kapitalida davlat ulushi mavjud banklar depozitlarining YalMga, aktivlarga, majburiyatlarga va kreditlarga nisbati yillar davomida qanday o'zgargani tahlil qilinadi. Kapitalida davlat ulushi mavjud banklar depozitlarining YalMga nisbati 2020-yilda 11,1 % ni tashkil qilgan va 2022-yilda 12,7 % ga ko'tarilgan. Biroq keyingi yillarda bu ulush pasayib, 2024-yilda 10,3 % ga tushgan va 2025-yilda 10,6 % ga qayta o'sgan. Ushbu

13 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

tendensiya davlat banklarining depozit jalb qilishdagi ulushining barqarorligini aks ettiradi. Biroq xususiy banklar bilan raqobat kuchaygani sababli ularning ulushi nisbatan qisqargan. O'zbekiston hukumati tomonidan davlat banklarini xususiy lashtirishga qaratilgan islohotlar va bank tizimini erkinlashtirish choralarining natijasida bu ko'rsatkich pasaygan bo'lishi mumkin (8-rasm).



8-rasm. Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar depozitlarining iqtisodiyotda va bank tizimidagi o'rni¹⁴.


Kapitalida davlat ulushi mavjud banklar depozitlarining aktivlarga nisbati 2020-yilda 28,6 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 26,1 % gacha kamaygan. Keyingi yillarda asta-sekin o'sib, 2025-yilda 30,7 % ga yetgan. Bu ko'rsatkichning tiklanishi davlat banklarining iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, davlat tomonidan yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda davlat banklari asosiy o'rin tutadi va bu ularning aktivlarga bo'lgan nisbiy ulushini oshiradi.

Kapitalida davlat ulushi mavjud banklar depozitlarining majburiyatlarga nisbati 2020-yilda 35,4 % bo'lib, 2021-yilda 30,0 % gacha qisqargan. 2022-yilda bu ulush yana 34,2 % ga ko'tarilgan va 2025-yilda 35,7 % ga yetgan. Ushbu ko'rsatkichning o'sishi davlat banklarining majburiyatlarining katta qismini depozitlar tashkil etishini bildiradi. Bu holat davlat banklariga bo'lgan ishonchning yuqoriligi va ularning barqarorlik darajasining saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Kapitalida davlat ulushi mavjud banklar depozitlarining kreditlarga nisbati 2020-yilda 35,2 % bo'lib, 2023-yilda bu ko'rsatkich eng yuqori nuqtaga – 40,8 % ga yetgan. Keyin esa 2024-yilda biroz pasayib, 37,3 % bo'lgan. 2025-yilda esa yana 42,1 % gacha ko'tarilgan. Bu davlat banklarining kreditlashdagi ustun mavqeini saqlab qolayotganini bildiradi. Xususiy banklar soni va faoliyati ortib borayotganiga qaramay, yirik loyihalar va ijtimoiy ahamiyatga ega tarmoqlarni kreditlashda davlat banklari muhim rol o'ynamoqda.

Quyidagi grafikda kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning ulushi ortib borayotgani aks ettirilgan bo'lsa, ushbu grafikda esa davlat banklarining nisbiy barqarorligi va ayrim sohalarida ulushning ko'payayotgani ko'zga tashlanadi. Bu holat O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari davomida davlat banklarining rolini saqlab qolish va ularni xususiy lashtirishni bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasiga mos keladi. Xususiy sektor o'sib borayotgan bo'lsa-da, davlat banklari yirik infratuzilma va ijtimoiy loyihalarini moliyalashtirishda muhim o'rin egallashda davom etmoqda (9-rasm).

14 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



9-rasm. Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar depozitlarining iqtisodiyotda va bank tizimidagi o'rn¹⁵.


Grafikdan ko'rinib turibdiki, 2020-yilda kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar depozitlarining YalMga nisbati 4,2 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 10,6 % gacha o'sib borgan. Bu o'sish O'zbekistonda bank sektorini liberallashtirish va xususiy banklar faoliyatini qo'llab-quvvatlash siyosati bilan bog'liq. So'nggi yillarda hukumatning moliyaviy bozorni rivojlantirishga qaratilgan islohotlari xususiy banklar uchun qulay muhit yaratib, ularning iqtisodiyotdagi ulushini oshirdi. Xususiy banklar omonatlarni jalb qilishda davlat banklariga nisbatan faolroq bo'lib, bu ularning YalMga ta'sirini sezilarli darajada oshirgan.

Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar depozitlarining aktivlarga nisbati nisbatan barqaror bo'lib, 2020-yilda bu ko'rsatkich 59,3 % ni tashkil qilgan, 2025-yilga kelib esa 57,9 % ga yetgan. 2022-yilda qisqa muddatli o'sish (63,0 %) kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda bu ko'rsatkich biroz pasaygan. Bu tendensiya xususiy banklar aktivlari tarkibida boshqa moliyaviy manbalar ulushining ortib borayotganidan dalolat beradi. Bank tizimida xususiy sektor o'rnini oshirgani sari, ular faqat depozitlarga emas, balki diversifikatsiyalangan moliyalashtirish manbalariga ham tayana boshladi.

Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar depozitlarining majburiyatlarga nisbati 2020-yilda 70,5 % ni tashkil qilgan va 2023-yilda bu ko'rsatkich 83,8 % gacha oshgan. Biroq 2024-yilda 66,4 % ga tushib, 2025-yilda 69,6 % ga qaytgan. Bu o'zgarishlar xususiy banklar majburiyatlarining tarkibida diversifikatsiya jarayoni kechayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan bank tizimini isloh qilish choralari xususiy banklarning xalqaro moliya bozorlariga chiqishiga imkoniyat yaratib, majburiyatlarning tarkibiy tuzilmasini kengaytirdi.

2020-yilda kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar depozitlarining kreditlarga nisbati 101,3 % bo'lgan, 2023-yilda esa bu ko'rsatkich eng yuqori nuqtaga – 112,2 % ga yetgan. Keyinchalik pasayib, 2025-yilda 92,7 % ni tashkil qilgan. Bu holat xususiy banklarning kreditlash faoliyatini kengaytirayotganidan dalolat beradi. So'nggi yillarda O'zbekistonda banklar orqali real sektorga yo'naltirilayotgan kredit hajmi ortib bormoqda. Bu esa iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining muhim qismi hisoblanadi. Xususiy banklar kreditlash jarayonida faol ishtirok etib, iqtisodiy o'sishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynamoqda (10-rasm).

15 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.




10-rasm. Kapitalida davlat ulushi mavjud banklar depozitlarning subyektiga ko'ra taqsimoti¹⁶ (mlrd so'mda).

Yuqoridagi grafikda kapitalida davlat ulushi mavjud banklarda jismoniy va yuridik shaxslarning depozitlari o'rtasidagi taqsimot 2021–2025-yillar davrida tahlil qilinadi. Grafikdan ko'rinib turibdiki, har bir yil davomida yuridik shaxslar depozitlari jismoniy shaxslar depozitlariga nisbatan ancha yuqori bo'lib kelgan. Biroq yillar o'tishi bilan jismoniy shaxslar depozitlarining ulushi muntazam ravishda oshib bormoqda.

2021-yilda kapitalida davlat ulushi mavjud banklarda jismoniy shaxslar depozitlari umumiy depozitlarning taxminan 21,6 % ini tashkil qilgan bo'lsa, yuridik shaxslar depozitlari 78,4 % ni egallagan. Keyingi yilda, ya'ni 2022-yilda jismoniy shaxslar depozitlari 22,1 % gacha o'sgan, yuridik shaxslar depozitlari esa 77,9 % ulushni tashkil qilgan.

2025-yilga kelib, jismoniy shaxslar depozitlari keskin o'sib, umumiy bank tizimidagi depozitlarning 34,5 % ini tashkil qilgan, yuridik shaxslar depozitlari esa 65,5 % ni egallagan. Bu tendensiya jismoniy shaxslarning kapitalida davlat ulushi mavjud banklarga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini va ularning depozitlari hajmining sezilarli darajada oshib borayotganini ko'rsatadi (11-rasm).



11-rasm. Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklar depozitlarning subyektiga ko'ra taqsimoti¹⁷ (mlrd so'mda).

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Grafik ma'lumotlaridan ko'rinadiki, yillar davomida jismoniy shaxslar depozitlarining ulushi izchil oshib borgan bo'lsa, yuridik shaxslar depozitlarining ulushi nisbatan pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2021–2023-yillar davomida jismoniy shaxslar depozitlarining ulushi sezilarli darajada o'sib borgan. 2021-yilda jismoniy shaxslar depozitlari umumiy depozitlarning 21,6 % ini tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 22,1 % ga, 2023-yilda esa 23,2 % ga yetgan. Shu davrda yuridik shaxslar depozitlari mos ravishda 78,4 %, 77,9 % va 76,8 % ni tashkil qilgan. Bu holat jismoniy shaxslarning bank tizimiga, xususan, davlat ulushiga ega banklarga bo'lgan ishonchi oshib borayotganini ko'rsatadi.

2024 va 2025-yillardagi o'zgarishlar jismoniy shaxslar depozitlarining yanada tez o'sib borayotganini aks ettiradi. 2024-yilda jismoniy shaxslar depozitlari 30,2 % gacha, 2025-yilda esa 34,5 % gacha ko'tarilgan. Shu bilan birga, yuridik shaxslar depozitlarining ulushi mos ravishda 69,8 % va 65,5 % gacha kamaygan. Bu esa jismoniy shaxslar depozitlarining umumiy tuzilmadagi ulushi barqaror ravishda oshayotganini anglatadi.

Umuman olganda, 2021–2025-yillar davomida kapitalida davlat ulushi mavjud banklarda jismoniy shaxslar depozitlarining ulushi 12,9 foiz punktga oshgan, yuridik shaxslar depozitlarining ulushi esa mos ravishda kamaygan. Bu tendensiya jismoniy shaxslarning davlat ulushiga ega banklarga bo'lgan ishonchi mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat banklarining aktivlari hanuz ustunlik qilayotgan bo'lsa-da, xususiy banklarning nisbatan tezroq o'sishi umumiy bank sektorining diversifikatsiyasini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususiy banklar aktivlarining ortib borayotgani raqobat muhitining yaxshilanishi va moliyaviy xizmatlarning diversifikatsiyalashganligini bildiradi. Shu bilan birga, xususiy banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning kengayishi kredit resurslarining samarali taqsimlanishiga va investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarining oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu tendensiyalar mamlakat bank sektorida olib borilayotgan islohotlarning ijobiy samarasini aks ettiradi. Xususan, bank sektorida davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va xususiy sektor ishtirokini oshirish bo'yicha islohotlar davom etmoqda. Xususiy banklarning aktivlari va bozor ulushi ortib, bank xizmatlari segmentatsiyalanmoqda. Shuningdek, bu bank tizimining diversifikatsiyalashuvi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga va kredit bozorining yanada samarali ishlashiga xizmat qilmoqda.

Davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarning kredit hajmi mutlaq qiymatda oshib borayotgan bo'lsa-da, ularning iqtisodiyotdagi ulushi pasaymoqda. Bu holat davlat banklarining bozor tamoyillariga moslashish ehtiyoji ortib borayotganini bildiradi. Xususiy banklarning tezroq o'sishi esa bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshlikning kuchayib borayotganini tasdiqlaydi. Kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning o'sishi va ulushining ortib borishi iqtisodiyotda moliyaviy diversifikatsiyaning kuchayganidan darak beradi. Bu jarayon mamlakat moliya sektorining barqarorligini oshirish bilan bir qatorda, investitsiya muhitini yaxshilash hamda moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, davlat banklarining islohotlar doirasida strategik funksiyalarni bajarishi muhim bo'lib, ular iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanishiga hissa qo'shishi lozim.

Kapitalida davlat ulushi mavjud banklarning umumiy moliyaviy ko'rsatkichlari o'sishda davom etmoqda. Biroq kapitalning nisbatan past sur'atlarda o'sishi va majburiyatlarning oshishi banklarning moliyaviy mustaqilligi hamda kapital yetarililigiga doir muammolar mavjudligini anglatishi mumkin. Shu bois, kelgusida davlat banklarining kapital yetarililigini oshirish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fikrimizcha, kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari izchil o'sish tendensiyasiga ega. Bu banklar iqtisodiyotda muhim o'rin egallab, bozor sharoitlariga moslashayotganini ko'rsatadi. Biroq kapital yetariligi va majburiyatlarning oshish sur'atlari o'rtasidagi tafovut risklarni boshqarish strategiyalarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu banklarning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun kapital yetarililigini oshirish, diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va risklarni minimallashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'ylaymizki, kapitalida davlat ulushi mavjud banklarning moliyaviy resurslari asosan depozitlar va boshqa majburiyatlardan shakllangan. Kapital ulushining esa nisbatan kichikligi aniqlandi. Ushbu tendensiya davlat ulushiga ega banklarning risk boshqaruvi va barqaror moliyaviy tuzilma yaratish strategiyalarini yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi. Shu sababli, kelajakda kapital ulushini oshirish va diversifikatsiyalangan moliyalashtirish manbalarini kengaytirish banklarning moliyaviy mustahkamligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.


So'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar bank tizimini modernizatsiya qilish va xususiy sektor ulushini oshirishga qaratilgan. Banklar faoliyatini erkinlashtirish, xorijiy investorlar uchun ochiqlikni ta'minlash va davlat monopoliyasini qisqartirish orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish maqsad

qilingan. Tahlillarga ko'ra, xususiy banklar bozorda mustahkam o'rin egallab, iqtisodiy islohotlarning muhim bo'g'iniga aylanib bormoqda. Bu islohotlar xususiy sektorning iqtisodiyotga faol integratsiyasini rag'batlantirib, iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning bank sektorida amalga oshirilayotgan islohotlar xususiy banklar rolini kuchaytirishga qaratilgan. 2020-yildan boshlab davlat ulushini kamaytirish, xorijiy investorlarni jalb qilish va bank tizimini diversifikatsiyalash choralari ko'rilmogda. Tahlillarga ko'ra, xususiy banklarning iqtisodiyotda tobora muhim ahamiyat kasb etayotgani ko'zga tashlanmoqda. Xususiy banklarning YaIM, kreditlar va majburiyatlardagi ulushi ortib, ular iqtisodiyotni moliyalashtirishning asosiy tarmog'iga aylanmoqda. Bu islohotlar davom etar ekan, kelgusi yillarda xususiy sektorning bank tizimidagi roli yanada kuchayishi kutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Levine, R. (2005). *Finance and Growth: Theory and Evidence*. Handbook of Economic Growth, Elsevier.
2. La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., & Shleifer, A. (2002). *Government Ownership of Banks*. The Journal of Finance, 57(1), 265–301.
3. Megginson, W. L. (2005). *The Economics of Bank Privatization*. Journal of Banking & Finance, 29(8-9), 1931-1980.
4. Yuan, D., Gazi, M. A. I., Harymawan, I., Dhar, B. K., & Hossain, A. I. (2022). Profitability determining factors of banking sector: Panel data analysis of commercial banks in South Asian countries. *Frontiers in psychology*, 13, 1000412.
5. Al Zaidanin, J. S., & Al Zaidanin, O. J. (2021). The impact of credit risk management on the financial performance of United Arab Emirates commercial banks. *International Journal of Research in Business and Social Science* (2147-4478), 10(3), 303-319.
6. Dong, J., Yin, L., Liu, X., Hu, M., Li, X., & Liu, L. (2020). Impact of internet finance on the performance of commercial banks in China. *International Review of Financial Analysis*, 72, 101579.
7. Тагирбекова К.Р. Организация деятельности коммерческого банка. – Москва: Весь Мир, 2004. – 848 с.
8. Azlarova A.A., Abduraxmanova M.M. Tijorat banklarining resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 311 b.
9. Melikov O. Tijorat banklari depozit xizmatlari amaliyotini takomillashtirish. // Yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot, 2025, 3(2), 7–12. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14872169>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100